

AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA'LIM STRATEGIYALARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH SHART-SHAROITLARI

Azimova Dilnoza Sherzodovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Alfraganus Universiteti "Ijtimoiy fanlar" fakulteti

"Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada autistik spektr buzilishlariga (ASB) ega bolalarni umumiy ta'lim tizimiga integratsiya qilishning pedagogik, psixologik va tashkiliy asoslari tahlil qilinadi. ASB bo'lgan o'quvchilarning sensor, kommunikativ va ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini moslashtirish strategiyalari, pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik modeli hamda inklyuziv muhitni shakllantirish shart-sharoitlari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan asoslab beriladi.

Kirish

Autistik spektr buzilishlari — nevro-rivojlanish xususiyati bo'lib, ijtimoiy muloqot, verbal va neverbal kommunikatsiya hamda takrorlanuvchi xulqiy harakatlar bilan tavsiflanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ASBning o'sish dinamikasi yil sayin ortib bormoqda, bu esa barcha davlatlar ta'lim tizimidan inklyuziv yondashuvni keng joriy etishni talab qiladi.

ASB bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim nafaqat ularning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, balki jamiyatda bag'rikenglik, xilma-xillikka hurmat va inson huquqlariga asoslangan madaniyatni mustahkamlaydi. Shu bois ushbu toifadagi bolalar uchun moslashtirilgan ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

ASB bo'lgan o'quvchilar sezgi tizimlarining ortiqcha yoki yetarli bo'lmagan sezgirligi tufayli o'quv vaziyatida qiyinchiliklarga duch keladi. Masalan: yorug'lik yoki tovushga yuqori sezgirlik; teginishdan qochish yoki aksincha kuchli bosimga ehtiyoj; sensor ortiqcha yuklama natijasida xatti-harakat buzilishi. Bu holatlar ta'lim muhitini maxsus moslashtirishni talab qiladi (sensor xonalar, jim burchaklar, vizual tartib shular jumlasidan).

ASB bolalarda ijtimoiy vaziyatlarni tushunish, do'stona aloqalar o'rnatish, hamkorlikdagi o'yinlarga kirish qiyin kechadi. Pedagogik jarayonda: model asosidagi o'rgatish, tengdosh yordamchisi, ssenariy asosida o'rgatish kabi metodlar samarali hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim strategiyalari



1. Individual ta'lim dasturini (ITD) ishlab chiqish

ASB bo'lgan bola uchun ta'lim jarayoni qat'iy individuallashtirishga tayanadi. ITD quyidagilarni o'z ichiga oladi: bola kuchli va zaif tomonlarining aniq bahosi; o'qitishning qisqa muddatli va uzoq muddatli maqsadlari; sensor, kommunikativ, kognitiv ehtiyojlardan kelib chiqqan moslashtirishlar; o'quv faoliyatidagi real kontekstli vazifalar shular jumlasidandir. ITDning samaradorligi mutaxassislar jamoasi — defektolog, logoped, psixolog, tutor va oila vakillarining hamkorligiga bog'liq.

2. Strukturaviy o'qitish

Mazkur o'qitish usuli — autizm uchun eng samarali, ilmiy asoslangan ta'lim tizimlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy komponentlari: vizual jadval va vaqt strukturasini joriy etish; makonning aniq zonalarga bo'linishi (ish burchagi, o'yin zonasi, dam olish joyi); faoliyatni vizuallashtirish; mustaqillikni oshirishga qaratilgan ketma-ket topshiriqlar. Strukturaviy o'qitish modeli O'zbekiston sharoitida ham asta-sekin tatbiq etilmoqda (inklyuziv maktablar, resurs markazlari, maxsus guruhlar misolida).

3. Ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish strategiyalari

“Ijtimoiy hikoyalar” (C. Gray modeli), “Video modeling” texnologiyasi, Rol o'ynash va ssenariylashtirilgan vaziyatlar, Tengdoshlar bilan qo'llab-quvvatlovchi interaksiya texnikasi. Ijtimoiy ko'nikmalar rivoji bolaning maktabga moslashuvi va sinf jamoasida o'z o'rnini topishi uchun muhim.

4. Sensor tartibni boshqarish strategiyalari

ASB bo'lgan bolalarning sensor ehtiyojlarini inobatga olish quyidagilar orqali ta'minlanadi: “sensorny dieta” — kun davomida individual sensor yuklamalar rejimi; jim burchaklar; qulay yorug'lik va akustika; chalg'ituvchi stimullarning minimallashtirilishi; sensor integratsiya mashg'ulotlari (ergo-terapiya).

5. AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)ni qo'llash

Bunga interaktiv doskalar orqali vizual struktura berish; VR/AR asosidagi ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish dasturlari; vizual darsliklar va animatsion topshiriqlar. AKT bolalarning kognitiv rivojini qo'llab-quvvatlaydi, mustaqil o'rganish imkonini oshiradi.

Pedagog kadrlarning maxsus tayyorgarligi nuqtai nazardan O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda inklyuziv ta'lim bo'yicha metodik qo'llanmalar va mutaxassislar malakasini oshirish dasturlari joriy etildi. ASB bilan ishlovchi pedagoglar quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur: autizmning neyropsixologik mexanizmlarini tushunish; strukturaviy o'qitish metodlarini qo'llash; xulqni funksional tahlil qilish (FBA); o'quv jarayoniga davlat ta'lim standartlarini moslashtirish.

Fizik muhitni moslashtirish yani barqaror tartib va struktura; individual ish zonalari; distraktorlarni kamaytirish; sensor yengillikni ta'minlovchi vositalar. Maktab infratuzilmasida rivojlanayotgan ekologik yondashuv (Bronfenbrenner modeli asosida) har bir bolaning ehtiyojiga mos muhit yaratishni talab qiladi.

Oila va maktab hamkorligida ASB bo'lgan bola bilan ishlashda oila — asosiy resursdir. Hamkorlik quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: muntazam maslahatlar, psixosodukatsiya; oilaviy markazlashgan yondashuv; uy sharoitida bajariladigan mashqlar bo'yicha tavsiyalar.

Autistik spektr buzilishlariga ega bolalar uchun inklyuziv ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish kompleks, tizimli yondashuvni talab qiladi. TEACCH, ABA elementlari, sensor tartibni boshqarish, AKT asosidagi alternativ kommunikatsiya va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha metodlar ilmiy dalillarga tayangan holda eng samarali yondashuvlar sifatida tan olinadi. Inklyuziv muhitni yaratish esa pedagoglar malakasining oshirilishi, oilaviy hamkorlik, moslashtirilgan infratuzilma, psixologik-pedagogik xizmatlar va davlat siyosati bilan chambarchas bog'liq. Bunday yondashuv ASB bo'lgan o'quvchilarning ta'limga teng kirish huquqini ta'minlaydi, ularning ijtimoiy integratsiyasini qo'llab-quvvatlaydi va jamiyatda insonparvarlik tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimova, U. (2022). *Autizm: psixologik-pedagogik yondashuvlar va diagnostika*. Toshkent: O'quv qo'llanma.
2. Shukurova, D. Sh. (2022). *Autistik bolalarda ijtimoiy moslashuv mexanizmlari*. TDPU ilmiy to'plami.
3. Nazarova, T. (2019). *Inklyuziv ta'lim metodikasi*. Toshkent: Fan.
4. Mo'minova, L. (2020). Maktablarda inklyuziv ta'limni joriy etish sharoitlari. *Barkamol avlod jurnali*, 5(3), 19–27.
5. Qodirova, G. (2020). *Oila va maktab hamkorligi pedagogik asoslari*. Toshkent.
6. Abdukarimova, N. (2019). Autizmida oilaning roli va psixologik qo'llab-quvvatlash. *Psixologiya jurnali*, 4(3), 39–48.